ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Mamanov Mehriddin Dusmurot o‘g‘li

mehriddinmamamo41@gmail.com

Sharof Rashodov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti.

BUXORO AMIRLIGIDA MANG‘ITLAR SULOLASI DAVRIDA SAMARQAND BEKLIGINING SIYOSIY AHAMIYATI.

Annotatsiya

Buxoro amirligda XVIII-XIX- asrlarda Samarqand bekligini ta’riflar ekanmiz avvalo, bu yerda ashtarxoniylar sulolasi davrida Samarqand oldingi nufuzini ancha yuqotganligini kurishmiz mumkun,iqtisodiy munosabatlarda eski o‘rta asrlarga oid iqtisodiy munosabatlar saqlanib qolganligini va ishlab chiqarish sohasida an’anaviy hunarmandchilik ishlab chiqarishi ustun bo‘lganligini ta’kidlashimiz zarur. Shahar iqtisodiy hayotida bir nechta sohalar o‘rin olgan edi, Mana shu sohalar tahlili asosida shahar iqtisodiy hayotini tavsiflash mumkin bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Samarqand bekligi, Zarafshon vohasi, tumanlar, Shohmurod, ma’muriy boshqaruv, bek, amlokdor, Ko’ktosh.

Mang’itlar sulolasining asoschisi va birinchi hukmdori Muhammad Rahimxon 1756-yil 12-dekabrda Buxoro amirligi taxtiga rasmiy ravishda amir bo’lib o’tirgach, o’z hokimiyatiga siyosiy tus berish maqsadida Samarqandga yo’l oladi.Bu davr manbalarida shahar «Dorus-saltana Samarqand» deb tilga olinadi. Urgutlik so’fiy va tarixchi Humuliyning «Tarixi Humuliy» asarida keltirilishicha, Muhammad Rahimxon Samarqandga maxsus kelib, mashhur Ko’ktosh taxtiga ham o’tirgan. Humuliyning yana yozishicha, Muhammad Rahimxon hali otaliq mansabida ishlagan paytidayoq Ko’ktosh taxtiga o’tirish marosimini o’tkazgan edi. Ashtarxoniylardan Subhonqulixon (hukmronlik davri: 1680-1702) vafotidan keyin Ko’ktosh ustiga hech kim taxtga o’tirmagan edi[1].

Muhammad Rahimxon Buxoro xoni bo’lgach, mamlakatda poytaxtdan keyin ikkinchi o’rinda turuvchi Samarqand shahriga alohida e’tibor bilan qaragan. Ma’lumki, Samarqand shahri XVIII asr 20-yillarida toj-taxt uchun bo’lgan kurashlarda (soxta xon Rajab Sulton – Rajabxonning xatti-harakatlari) va ko’chmanchi qozoqlarning shaharga bostirib kelishi natijasida butunlay vayron bo’lgan va xarobaga aylangan edi. Bu fojialar shu qadar dahshatli bo’lganki, odamlar 1730-yildan boshlabgina Samarqand qal’asiga qaytib kelishgan va o’zlariga uy-joy qura boshlaganlar. Biroq Eron shohi Nodirshohning 1740-yildagi bosqinchilik yurishi natijasida Samarqand yana dushman qo’liga o’tadi va vayronaga aylanadi[2].Muhammad Rahimxon Hisorni egallagach, bu yerdan Samarqandga bir necha ming oilani ko’chirgan edi.Muhammad Rahim Mang'it o'z hukmronligi davrida Samarqandni jonlantirishga bir qancha urinishlar qilgan . Shunday qilib, XVIII-asrning 50-yillarida. Zarafshonning sug‘orish tizimi, Darg‘omdagi to‘g‘on tiklandi, Urgut yaqinidagi Sharoz tumanida Pekjikent yaqinida shuningdek, Samarqanddan pastdagi Qoradaryo va Oqdaryodan ariqlar tozalandi va qisman yana qazildi . Samarqand qal'asi va shahar devorlari tiklandi.[3]

Samarqandning mang‘it hukmdorlar davridagi holatini aytib o‘tish lozim. Aynan Muhammad Hakimbiy o‘g‘li Muhammad Rahimxon (1715-1758) zimmasiga yangi mang‘itlar sulolasi va davlatiga asos solishdek sharafli bir vazifa tushgan Birinchi Mang’it hukmdori Muhammad Rahimbiy mamlakatda avj olgan siyosiy parokandalikka qarshi kurashadi.

Davlatdagi iqtisodiy hayotni tartibga solishga harakat qiladi. Markaziy hokimiyatga Nurota, Kobadiyon, Boysun, Huzor, Panjikent, Urgut, Jizzax, Zomin va Shahrisabz kabilarni bo'ysundiradi. Muhammad Rahimbiy Samarqandga kelganida shaharni bo'shab qolganining guvohi bo'ldi. Aynan bu davrga kelib Samarqandning ahvoli ko'plab tarixchilar asarlarida xolisona yoritilgan.

Amir Muhammad Doniyolbiyning 12 barkamol o'g'li bo'lib, ular o'rtasida katta o'g'li va vorisi Shohmurod (1741-1800) alohida ajralib turgan. Shohmurod 1780-yildan Samarqand hokimi bo'lgan. Shohmurod Samarqand shahrini tiklash va obod qilishga o'zining katta hissasini qo'shgan. Xususan, u otasi vafot etgach, 1785-yil 9-iyunda Buxoro amiri bo'lganidan so'ng Samarqandni obodonlashtirish ishlariga alohida e'tibor bilan yondashadi.

Shohmurodning o'zi qayta qurilajak shahar tarhini chizgan. Shahardagi ariqlar va tomorqalar tozalangan. Sal keyinchalik Samarqand madrasalarida tahsil olgan Humuliyning yozishicha, Amir Shohmurod shaharda 24 ta yangi mavze qurdirib, mamlakatning sharqiy viloyatlaridan bu yerga aholini ko'chirib keltirgan. Samarqand shahridagi har bir madrasa va masjidga mudarris, muazzin va imomni Amir Shohmurodning shaxsan o'zi tayinlagan. Shahar markazida olti qirrali Chorsu – «Toqi musaddas» qurdiradi. Chorsu baland burchakli bino bo'lib, uning markazida baland gumbaz va undan ajraladigan olti yo'lak bo'lgan. Bu yo'laklar shahar darvozalari Buxoro, Korizgoh, So'zangaron, Feruza, Ohanin va Haydarobodga qarab ketgan. Samarqandning oltita asosiy darvozasi Amir Temur davrida ana shunday nomlangan. U Samarqand yaqinidagi Dahbed mavzesida joylashgan Maxdumi A'zam ziyoratgohini ham qayta barpo qildirgan. Bu davrdagi Buxoro amirligi hayotida Samarqand shahrining ahamiyati katta edi. XIX asr boshiga kelib esa Samarqand yirik shahar qiyofasiga ega bo‘lgan. Ingliz ayg‘oqchisi Mir Izzatullaning guvohlik berishicha Samarqand kundan-kun rivojlanib borayotgan edi. Shaharning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishiga uning qulay geografik joylashuvi sabab bo‘lgan[4]. Shahar Zarafshon daryosining janubida joylashgan bo‘lib, shimol, sharq va janubdan baland tog‘lar bilan o‘ralgan hamda g‘arbdan unga keng ekin maydonlari tutashgan edi. Undan tashqari, shaharning joylashuvi shimoli-sharqdan Xitoy va Sharqiy Turkistondan, janubi-sharqdan Hindistondan, g‘arb tomondan Xorazm va Buxoro orqali keluvchi Eron, Kaspiybo‘yi erlaridan, shimoldan esa Rossiya erlaridan keluvchi savdo karvonlari uchun qulay tutashish joyi bo‘lgan.

Samarqandda Ko'k toshga o'tirish an'anasi XIX asrni birinchi yarmida ham davom etdi. Shohmurodning o'g'li, onasi tomonidan ashtarxoniy Abulfayzxonning qizi tomonidan nabirasi Amir Haydar (1800-1826 yy)ni oq kigizda oliy hukmdor etib ko'targanlar va Samarqandda ko'k toshga o'tqazib, uni rasman hukmdor etib tan olganlar. Bu voqeani XIX asrning 20-yillarida Buxoroda bo'lgan Ye.K.Meyendorf o'z ma'lumotlarida keltirib o'tadi. Uning qayd etishicha, oliy hukmdor taxtga o'tirish marosimini o'tkazish uchun Samarqandga borishi va Mirzo Ulug'bek madrasasida turgan Ko'k toshga o'tirishi lozim edi.«U(ko'k tosh) to'rtburchak shaklida bo'lib, har tomonining uzunligi bir yarim sarjin, qalinligi bir arshindir.Bu toshni oq kigiz yopib turadi. Xon o'tirgach uchlarini ulamolar, fuqarolar, fozillar va sayidlar ushlagan bu kigizni uch marta ko'taradilar».

Mang'itlar sulolasining yettinchi hukmdori bo'lgan Amir Nasrulloh Bahodurxon (1806-1860) davrida ham Samarqand strategik jihatdan amirlikdagi muhim shaharlardan biri hisoblangan. Mang'itlar sulolasi davrida Samarqandda iqtisodiy o'sish ko'zga tashlanadi. Xususan, Amir Shohmurod hukmronligi yillaridan boshlab shahardagi iqtisodiy hayot sezilarli darajada jonlangan. XVIII asr o'rtalaridan to XIX asrning so'nggi choragigacha Samarqand mintaqada hunarmandchilik ishlab-chiqarishi va savdo-sotiqning yirik markazi bo'lib qoldi. Bu davrda Samarqandda gul solingan turli rangdagi shoyi va atlas gazlamalar, abr, ip va shoyi olacha, zandaniycha, bo'z va guldor gazlamalar, shoyi ro'mollar ishlab chiqarilgan. Bu davrda fo'ta to'qish ham keng tarqalgan edi. Masalan, XIX asrning 70-yillariga oid ma'lumotlarga ko'ra,

birgina Samarqandda fo'ta to'qiydigan korxonalar soni 40 ta bo'lgan. Samarqand o'zining zargarlari bilan ham shuhrat qozongan edi. Ular kumush va misdan, ba'zan oltindan ham ayollar uchun bezaklar, taqinchoqlar tayyorlashar, ularni qimmatbaho toshlar bilan qoplashardi. Zargarlar uzangilarni, shu jumladan, egar-jabduqlarni ham kumush bilan bezatishardi.

Bir xil mahsulot tayyorlaydigan hunarmandlar o'ziga xos uyushmalarga birlashgan. Bitta uyushma a'zolari bo'lgan ustalar odatda shaharning bitta mahallasida yashagan[5]. Samarqandda Zargaron (zargarlik bilan shug'ullanuvchi ustalar), So'zangaron (igna tayyorlovchi ustalar), Charmgaron (ko'nchilar), Xarroton (yog'och yo'nuvchi ustalar, duradgorlar), Kulolon (kulollar), Sharbatdaron (sharbat tayyorlvchilar) va boshqa ana shunday mahallalar bo'lgan. Amirlik poytaxti hisoblangan Buxoroda ham ana shunday ustalar mahollalari azaldan mavjud bo'lib, ular hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Temuriylar davrida bo'lgani singari mang'itlar sulolasi davrida ham Samarqandda a'lo navli sifatli qog'oz ishlab chiqarilgan. 1863-yilda Buxoro va Samarqandda «turk hojisi» qiyofasida bo'lgan vengriyalik taniqli sharqshunos va sayyoh, ayni paytda Buyuk Britaniya imperiyasining xufiyasi German Vamberi (1832-1913) o'zining asarlarida Samarqand va Buxoroda o'sha paytlarda ishlab chiqarilayotgan qog'ozga juda yuqori baho beradi[6].

G. Vamberi o'z asarlarida Samarqanddagi hunarmandlar faoliyatiga juda yuqori baho bergan. U Samarqanddagi jabduq yasovchi ustalar haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: «Samarqand bozorlarida sotish uchun mashhur charm mahsulotlar, did bilan ishlangan egarlar qo'yilgan, ularning bezagi hatto yevropalik ustaga ham shuhrat keltirishi mumkin».

XIX asrning birinchi yarmida ichki va tashqi savdoning yanada o'sganligi ko'zga tashlanadi. Shaharda karvonsaroylar va do'konlarning ko'payganligi ana shundan dalolat beradi. Bu paytda Samarqandda mavjud bo'lgan ayrim bozorlar boshqa shaharlarda uchramasligi mumkin edi. Masalan, ayrim manbalarda «bozori bargi tut» nomi bilan mashhur bozorlari bo'lganligi tilga olinadi. Jumladan, XIX asrda Samarqandda bunday bozor mavjud bo'lib, ipak qurti boquvchilar barg tanqisligi sezilganda uni shu yerdan sotib olganlar. Shahardagi Sherdor madrasasi yonidagi ko'chat bozorida esa «boshqa daraxtlar bilan bir qatorda tut daraxtining «balxiy» va «xorazmiy» navlari katta miqdorda sotilgan» .

Xullas, Samarqand shahri XIX asrning o'rtalarida Buxoro amirligining ikkinchi eng muhim savdo va hunarmandchilik markazi hisoblanardi. 1820-yil A.F. Negri missiyasi tarkibida Buxoroda bo'lgan Ye.K.Meyendorfning yozishicha, bu paytda Samarqandda 50.000 kishi yashagan[7]. Qiyoslash uchun shuni ta'kidlash lozimki, XIX asr boshlarida Buxoro amirligida taxminan 2 mln. kishi, poytaxt Buxoroda esa 60.000 kishi yashagan. XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligi bir necha viloyatlar va bekliklarga ajratilgan. Amirlikdagi eng yirik Buxoro va Samarqand viloyatlari esa tumanlar va boshqa kichik ma'muriy birliklarga bo'lib idora qilingan. Samarqand viloyati va shahrini amir tomonidan tayinlangan hokim boshqargan.Manbalarda XVIII asr o'rtalarida Samarqand haqida shunday ma'lumotlar keltiriladi: «O'rta Osiyoning bir vaqtlar ko'pchilik musulmon Osiyosining madaniyat va siyosat markazi bo'lib o'tgan va chindan «Samarqand firdavs¬monand» sifatiga arziydigan bir yo'sunda bezangan Samarqand keyingi zamonlarda buzilib quruq bir cho'lga aylangan edi. Mang'it amirlarining birinchisi bo'lgan Rahimxon Samarqand muzofotini qo'lga kirguzamen deb kelganda (h. 1166 -(1752) yil boshlarida) Samarqand shahrida jon egasi yo'q edi, hatto Raboti Xojabandiy to'g'oni buzulg'on va Samarqand suvdan mahrum qolg'on edi. Rahimxon ushbu safarida (h. 1166 -y. jumod as-soniy oyida) Raboti Xoja Bandiyni tuzatib, Samarqandg'a suv oqizg'on bo'lsa ham odam yo'qlig'idan obod bo'lmadi.

Rossiyalik Ivan Kirillov 1734-yilda Samarqand haqida «Samarqand avvalda shuhratli va kuchli davlat bo'lgan. Hozirda esa madrasa va ko'plab arabcha va boshqa tildagi kitoblardan tashqari unda hech narsa qolmagandir». 1790-yilda O'rta Osiyoda bo'lgan Novopatrassk mitropoliti Xrisanf ham shahardagi bu holatni tasdiqlab, «Samarqand hozirda bo'm-bo'shdir, uni zabt etgan takabbur Buxoro noibi qanchalik harakat qilmasin, uni oldindagidek aholi bilan to'ldirish borasidagi uning mehnati bekordir», - deb qayd etadi.

Samarqand shahrining XIX asrdagi mavqeiga ta'rif berar ekanmiz T.S.Saidqulovning "shahar xonlik (amirlik) ning bosh shahri hisoblangan"[8] degan ta'kidini va rus muallifi F.Nazarovning "birinchidan, tarixiy va diniy sabablar oqibatida, ikkinchidan, mamlakatdagi aholisi eng zich, boy viloyat markaziy shahri sifatida" degan fikrini keltirib o'tishimiz o'rinlidir.

Mang'itlar davrida podshoh, olim va mudarris bo'lgan Amir Haydar boshqalarga katta ibrat ko'rsatib, eski madrasalarni ta'mirlash va yangilarini qurish bilangina qanoatlanmay, yana o'z bilimini tolibi ilmlardan ayamagan. Bu davrda mashhur olimlar sulolasi hisoblangan mufassir olim qozi ul-quzzot Abdulhayxoja, uning o'g'li qozi ul-quzzot Mir Abu Sa'idxoja va nabirasi, «Samariya» asarning muallifi muftiy Mir Abu Tohirxojalar Sherdor madrasasida shariat, tarix, adabiyot sohalarida ijod etishib, ta'lim berishgan.[9]

Mang'itlar sulolasi davrida Samarqand shahri aholisi asta-sekinlik bilan bilan to'ldirib borilgan. XIX asrning 40-yillarida shaharda taxminan 25-30 ming kishi istiqomat qilgan.[10] Ammo Samarqand poytaxt bo'lmasa-da oliy hukmdorlar shaharda joylashgan Ko'k toshga o'tirish rasmiy marosimi o'tkaziladigan markaz sifatida ahamiyatini saqlab qoldi. Shunday qilib, Samarqand shahri 1756-1868 yillar oralig'ida Buxoro amirligi tarkibidagi muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatida taraqqiy etgan. Mang'itlar sulolasi vakillari va shahar hokimlari Samarqandni rivojlantirish va obodonlashtirish ishlariga baholi qudrat o'z hissalarini qo'shishgan. Yuz yildan ortiq bo'lgan ushbu davrda, xususan, Amir Shohmurod va Amir Haydar hukmronligi yillarida shahar qiyofasi tubdan o'zgargan, Eski shaharning hozirgi ko'rinishiga aynan o'sha paytda asos solingan. Xulosa qiladigan bulsak O'rta Osiyoning qulay geografik xududida joylashgan Samarqand shahri Buxoro amirligining muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi sanalgan. Siyosiy nuqtai nazardan Samarqand Buxoro amirlariga tom ma'noda "oliy hukmdor" maqomini bergan marosimni o'tkazish bilan bog'langan joy bo'lsa, boshqa tomondan ichki va tashqi savdo, ishlab chiqarish hamda ilm-fan markazi sifatida yanada muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Ражабов К. Мухаммад Рахимхон — мангитлар сулоласи асосчиси. // Бухоро мавжлари, 2005, 3-сон, 36-3 7-бетлар.
2. Ражабов К. Мухаммад Рахимхон — мангитлар сулоласи асосчиси. // Бухоро мавжлари, 2005, 3-сон, 36-3 7-бетлар.
3. Abramov M.M. Samarqand siyosiy tarixidan, II chorak XVIII asr Qarang: g. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1967-yil, 3-son. 39-bet
4. Соколов Ю.А. К вопросу о причинах провала английских устремлений в Восточную Европу, Среднюю Азию и Персию (XУ1 — XVII вв.) //Труды САГУ. Вьш. 68. 1955. с. 196-bet.
5. Файзиев А.Ф. История Самарканд в первой половины XIX века (учебное пособие).–Самарканд, 1992.–С.5.
6. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. Москва: 1865. С. 80
7. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва, 1975. – С. 90.
8. Саидқулов Т.С. Самарканд во второй половин XIX – начале XIX веков. – Самарканд, 1970. – С.

9. Абу Тохир Хожа. Самария. Тошкент: Мерос, 1989. Б. 15.
10. Иванов П.П. К истории развития горного производства в Средней Азии. – М.-Л., 1932.